TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENT

# “RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

## FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT
## Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 329 sahifa.*
*2026-yil, fevral.*

**Bosh muharrir:**
Mo‘minov Baxodir Boltaevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
Nasimov Rashid

**Muharrir:**
Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Musahhih:**
Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Dizayner:**
Egamberdiyev Elyor

### Tahrir hay’ati:

1. Mo‘minov Bahodir (hay'at raisi)
2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o‘rinbosari)
3. Marat Raxmatullayev (O‘zbekiston)
4. Muxammadjon Musaev (O‘zbekiston)
5. O‘tkir Xamdamov (O‘zbekiston)
6. Ali Xikmet (AQSh)
7. Dmitriy Rodionov (Rossiya)
8. Dilnoza Muhammadieva (O‘zbekiston)
9. Gayrat Ishanxodjaev (O‘zbekiston)
10. Nodir Rahimov (O‘zbekiston)
11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya)
12. Xamza Eshankulov (O‘zbekiston)
13. Iles Xujayarov (O‘zbekiston)
14. Mexriddin Raximov (O‘zbekiston)
15. Murodjon Sultanov (O‘zbekiston)
16. Bekmurodov Ulug‘bek (O‘zbekiston)
17. Alisher Qobilov (O‘zbekiston)
18. Iroda Abdullaeva (O‘zbekiston)
19. Burova Ekaterina (Rossiya)
20. Xodiyeva Gulmira (O‘zbekiston)
21. Sultonboyeva Munira (O‘zbekiston)

### Jamoatchilik kengashi:

1. Gul Tokdemir (Turkiya)
2. Umid Axmedov (Daniya)
3. Marko Porta (Italiya)
4. Xristo Beloev (Bolgariya)
5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya)
6. Boshtyan Brumen (Sloveniya)
7. Bibigul Koshoeva (Qirg‘iziston)
8. Olga Dzyabenko (Ispaniya)
9. Stefani Estlund (Lyuksemburg)
10. Sanjar Iskandavor (O‘zbekiston)
11. Aydos Sarsembayev (Qirg‘iziston)
12. Svetomir Vasilev (Bolgariya)
13. Pap Solt (Vengriya)

# MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ........................ 7
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna**
MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI..... 13
**Eshov Mansur Po'latovich**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI. ........................................ 20
**Babadjanov Atxam Axmadjanovich**
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ........................ 26
**Ахмедов Самандар Сайфуллоевич**
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.. 32
**Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna**
SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI ........... 38
**Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich**
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI ........................ 43
**Pardayev To'lqin Nasirovich**
QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI ........................ 47
**Quramboev Jamshid Rashid o'g'li**
EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL........................ 50
**Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich**
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODELI VA RISK-MONITORING TIZIMI ........................ 56
**Tashmuxamedov Dilmurod Mirabzalovich**
WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS........................ 62
**M.N. Umarova**
MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA........................ 69
**Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich**
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI........................ 76
**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**
MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI..................... 81
**Arziyeva Sevinch Shomurot qizi**
TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH.................. 85
**Babadjanov Shuhrat Atxamovich**
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI........................ 92
**Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li**
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI........................ 97
**Karimov Alibek Valiyevich**
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI........................102
**Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna**
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА.................108
**Набиев Бехзод Шавкатович**
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI........................114
**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek**
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI........................120
**Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi**
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI........................124

**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna**
РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ........134
**Турсунов Бобир Ортикмирзаевич**
KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........141
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**
MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ........147
**Umarova Nargiza Xoldarovna**
YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI........154
**Sadriddinova Nigora**
RAQAMLI MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O'RTASIDAGI IJTIMOIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI.... 162
**Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li**
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI........170
**Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li**
YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O'ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI ........176
**Makkamov Z.X., Soatov S.S.**
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI........182
**Muxtorov Boburmirzo Bahodir o'g'li**
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI ........188
**Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda**
PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........192
**Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o'g'li**
YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO'NALISHLARI........196
**To'patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi**
BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI........201
**Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug'bek o'g'li**
SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI........208
**Axmedov Zafar Bozorboyevich**
DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEXANIZMLAR........213
**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI ..221
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........226
**Azlarova Mushtariybegim Abror qizi**
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINING ROLI........232
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna**
MOLIYAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI........238
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G'anijon qizi**
AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI ........244
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi**
MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI ........251
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**
BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI........258
**Azlarova Aziza Axraravna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi**
AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI........265

**Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna**
PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MAVJUD KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI ......272
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**
ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO'LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR ......278
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna**
AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI ......285
**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI ......292
**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ ......298
**Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна**
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА ......305
**Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна**
MOLIYAVIY INKLUZIYADA KIBERXAVFSIZLIKNING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA ......313
**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**
MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA SOLIQ SAVODXONLIGINING O'RNI ......318
**Irgashev Anvar Farxodovich**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALTERNATIV KREDIT SKORING TIZIMLARINING AHAMIYATI ......322
**Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li**
THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS ......325
**Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli**
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ......328
**Qarshiyeva Moxinur Olim qizi**
THE ROLE OF RITUALS IN ATTRACTING TOURISTS ......331
**Freshta Qayoumi**
O'ZBEKISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI ......333
**Po'latova Mavluda Sanjar qizi**
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLAR KESIMIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH ......336
**Otajonova Charosxon Polvonquli qizi**
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI ......340
**Valijonov X.A.**
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGI MASALALARI ......344
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich**
KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISHNING MAKRO DARAJADAGI TAHLILI ......347
**Suyarov Shahzod Salim o'g'li**
INVESTITSIYON MUHITNI SAMARALI BOSHQARISHDA INNOVATSION OMIL TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ......350
**To'rayev Jasurali To'rayevich**
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI: DH-ROI-EM MODELI ASOSIDA ......353
**Omonov Olim Murodullaevich**

РИСКИ ЛИКВИДНОСТИ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ............355
**Садыков Азиз Миршарапович**

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN RESTAURANTS AND ENHANCING OFFERINGS FOR TOURISTS............358
**Freshta Qayoumi**

INVESTITSIYA FAOLLIGI MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK OMILI SIFATIDA............360
**Islamov Anvar Ashirqulovi**

ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH............363
**Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli**

SANOAT TARMOG‘INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI............363
**Ne’matov Shoxruxbek Ma’murjon o‘g‘li**

CHANGES IN TEXTILE INDUSTRY OUTPUT AND THE FACTORS INFLUENCING IT............367
**Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich**

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI AUDITINING NAZARIYMETODOLOGIK ASOSLARI............371
**Ibragimov Nodirbek Baxodir o‘g‘li**

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI AUDITINING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI............373
**Ibragimov Nodirbek Baxodir o‘g‘li**

KAM XARAJATLI TASHUVCHILAR MODELINING MOHIYATI............376
**Suyunov Alisher**

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MEHMONXONALAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HORIJIY TAJRIBANI QO‘LLANILISHI............379
**Abidova Dilfuza Igamberdievna**

ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ТУРИЗМЕ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ СПРОСА И ПРЕДЛОЖЕНИЯ............382
**Абидова Дилфуза Игамбердиевна**

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH............385
**M. M. Abdurahmanova**

ERKIN IQTISODIY ZONA ISHTIROKCHILARIGA BERILGAN SOLIQ IMTIYOZLARI............389
**Davlayev G‘olib Ashurovich**

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA YASHIL TRANSFORMATSIYA VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI............392
**Xaydarova Kamola Axinjanovna**

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA FAOLIYAT YURITUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI ZAMONAVIY INFRATUZILMA BILAN TA’MINLASHNING HUQUQIY VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH............395
**Davlayev G‘olib Ashurovich**

O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR............398
**Asadova Maftuna Sa’dullayevna**

YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI............401
**Xolikov S.X.**

YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI............404
**S.X. Xolikov**

DAROMADLAR VA XARAJATLARNI BOSHQARISH KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR............408
**Aymuxammedova Amina Kakajanovna**

QISHLOQ XO‘JALIGI AGROTEXNOLOGIYALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH............411
**Jollibekov Vladimir Baxtiyarovich**

TOWARDS A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: REGIONAL DEVELOPMENT AND ENVIRONMENTAL CHALLENGES ........ 413
**Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna**

TOWARD RESPONSIBLE HYDROCARBON DEVELOPMENT: SUSTAINABILITY AND ENVIRONMENTAL ACCOUNTABILITY........ 417
**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi**

MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI ........ 420
**Islamov Anvar Ashirqulovich**

O'ZBEKISTON SANOAT TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI........ 423
**Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li**

TIJORAT BANKLARINING ONLAYN XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XALQARO TAJRIBASI ........ 427
**Jumaniyozova M. Y.**

HAVO TRANSPORTIDA YUK TASHISH BOZORIDA KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI: GSA/ GSSA AGENTLIK HAMDA EKSPEDITORLIK MODELLARI TAHLILI ........ 430
**Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi**

RAQAMLI PLATFORMALAR VA IJTIMOIY MEDIA TARMOQLARINING TURIZM SOHASIDA ISTE'MOLCHI XATTIHARAKATLARIGA TA'SIR MEXANIZMLARI ........ 435
**Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON XIZMATLARNING ISTIQBOLLARI VA TAHLILI ........ 438
**Otaboyev Nodirbek Oybek o'g'li**

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK AKTIVLAR VA INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 441
**Mirzaev Komiljon Abdullajonovich**

BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODELI VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH MASALALARI ........ 444
**Axmetova S. S.**

YASHIRIN IQTISODIYOTNING VUJUDGA KELISH OMILLARI VA SABABLARINING NAZARIY ASOSLARI........ 448
**Raxmonov Azizjon Sadullayevich**

BOJXONA IMTIYOZLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARIVA XALQARO TAJRIBASI........ 455
**Latipov Jahongir Shavkatovich**

QURILISH SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING TARKIBI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ........ 459
**Asadova Maftuna Sa'dullayevna**

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI IQTISODIY TIZIMLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING DINAMIKASI VA USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 463
**Karimov Odiljon Boqiyevich**

SOLIQ NAZORATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI........ 466
**Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li**

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING STRATEGIK TENDENSIYALARI ........ 468
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna**

TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI ........ 471
**Abduganiyev Shoxruxbek Shavkatbek o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH ........ 476
**Primkulova Zilola Abrorovna**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLAR XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH ........ 480
**Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna**

MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 483
**Yoqubjon Toxirov**

FORSAYT TEXNOLOGIYASI ORQALI TA'LIM MUASSASASI RAHBAR XODIMLARNING MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 487
**Nuriyeva Umida Buribayevna**

PROJECT-BASED ORGANIZATIONS UCHUN KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN KADRLAR SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 491
**Qarshiboyev Jasur Fazliddin o'g'li**

SUG'URTA SHARTNOMASINING HAYOTIY SIKLI BO'YICHA XARAJATLARNI GURUHLASH MASALALARI ........ 494
**Murodov Habibullo Qodir o'g'li**

TIJORAT BANKLARI RESURSLARI TARKIBIDA AHOLI OMONATLARI ULUSHINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI ........ 498
**Melikov Otabek Maxmadaminovich**

"MUVAFFAQIYATLI HARAKATLAR" (SUCCESSFUL EFFORTS) USULI ASOSIDA GEOLOGIYAQIDIRUV XARAJATLARINI KAPITALLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 500
**Rizayev Nurbek Qodirovich**
**Izbasarov Bahodir Ergashevich**

BIZNESDA RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 504
**Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi**

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH IJTIMOIY INSTITUTINING MOHIYATI, ROLI VA AHAMIYATI ........ 507
**Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna**

MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA MODELLARDAN FOYDALANISH ........ 510
**Xusanova Malohat Mingnorovna**

XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODELI VA ILMIY YONDASHUVLARI ........ 513
**Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich**

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA BOJXONA NAZORATI VA RASMIYLASHTIRUVINI RAQAMLASHTIRISH: ERISHILGAN NATIJALAR, STATISTIK TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR ........ 517
**Berdiyev Abbos**

THE RELATIONSHIP BETWEEN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT PRACTICES AND ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY ........ 522
**Sultonboyeva Munira Bahodirovna**
**Sultanova Kamila Muktorali kizi**

FEATURES OF INVESTMENT BEHAVIOUR IN THE CONTEXT OF FINTECH DEVELOPMENT ........ 527
**Karimova Nurjakhon Olim kizi**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI........532
**Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li**

TEMIR YO'L TRANSPORTINING SAMARALI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA........535
**Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li**

# TEMIR YO'L TRANSPORTINING SAMARALI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA

**Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li**
**«O'zbekiston temir yo'llari» AJ Iqtisodiy tahlil va prognozlash departamenti boshlig'i o'rinbosari**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda temir yo'l transportining samarali rivojlanishini ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Yaponiya, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Lotin Amerikasi va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida temir yo'l tarmog'ini isloh qilish, transport-logistika tizimlarini boshqarish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda aralash va multimodal tashuvlarni rivojlantirishga oid yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, temir yo'l infratuzilmasidan samarali foydalanish, transport kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirish, investitsiyalarni jalb etish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Xorijiy tajribaning samarali jihatlarini O'zbekiston temir yo'l tizimining milliy, hududiy va infratuzilmaviy xususiyatlariga moslashtirish bo'yicha takliflar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** temir yo'l transporti, xorijiy tajriba, transport-logistika tizimi, multimodal tashuvlar, aralash tashuvlar, temir yo'l infratuzilmasi, boshqaruv samaradorligi, raqobatbardoshlik, investitsiyalar, transport xizmatlari.

**Abstract.** This thesis analyzes the experience of foreign countries in ensuring the efficient development of railway transport. The approaches applied in Japan, the United States, France, the United Kingdom, Canada, Australia, Latin American countries, and the European Union to reforming the railway sector, managing transport and logistics systems, expanding private-sector participation, and developing combined and multimodal transportation are examined. The importance of the efficient use of railway infrastructure, coordination of transport companies' activities, attraction of investment, and introduction of modern management technologies is also highlighted. Proposals are presented for adapting the effective aspects of international experience to the national, regional, and infrastructural characteristics of Uzbekistan's railway system.

**Keywords:** railway transport, international experience, transport and logistics system, multimodal transportation, combined transportation, railway infrastructure, management efficiency, competitiveness, investment, transport services.

**Аннотация.** В данном тезисе проанализирован зарубежный опыт обеспечения эффективного развития железнодорожного транспорта. Рассмотрены подходы, применяемые в Японии, США, Франции, Великобритании, Канаде, Австралии, странах Латинской Америки и Европейского союза, к реформированию железнодорожной отрасли, управлению транспортно-логистическими системами, расширению участия частного сектора, а также развитию смешанных и мультимодальных перевозок. Освещено значение эффективного использования железнодорожной инфраструктуры, координации деятельности транспортных компаний, привлечения инвестиций и внедрения современных управленческих технологий. Сформулированы предложения по адаптации эффективных аспектов зарубежного опыта к национальным, региональным и инфраструктурным особенностям железнодорожной системы Узбекистана.

**Ключевые слова:** железнодорожный транспорт, зарубежный опыт, транспортно-логистическая система, мультимодальные перевозки, смешанные перевозки, железнодорожная инфраструктура, эффективность управления, конкурентоспособность, инвестиции, транспортные услуги.

## KIRISH

Temir yo'l transportini yanada rivojlantirish transport turlarining o'ziga xos xususiyatlarini hamda O'zbekiston Respublikasining transport tizimida temir yo'l transporti muhim o'rin tutishini hisobga olishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, transport kompaniyalarini boshqarishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga izchil joriy etish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston temir yo'l tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishda «O'zbekiston temir yo'llari» AJ faoliyatini muntazam takomillashtirib borish muhim hisoblanadi. Bunda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari,

ichki va tashqi jarayonlar, iste'molchilar hamda ta'minotchilar bozori holati, shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish zarur. Logistika sohasidagi ilg'or ilmiy usullarni milliy sharoitga moslashtirish esa transport xizmatlari samaradorligi va sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Temir yo'l transporti faoliyatini samarali tashkil etishda mahalliy va xorijiy ilmiy-amaliy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat muhiti rivojlanib, transport xizmatlari sifatiga qo'yiladigan talablar ortib borayotgan sharoitda tashuvlarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni samarali hal qilishda logistika sohasidagi yutuqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda temir yo'l tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda raqobat muhitini kengaytirish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish va temir yo'l tashuvlarini tashkil etishning samarali modellarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada milliy temir yo'l kompaniyalarining faoliyat yuritish tamoyillari takomillashib, transport xizmatlari bozorida turli operatorlarning ishtiroki kengaymoqda.

Temir yo'l transportida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar tashuv jarayonida ishtirok etuvchi kompaniyalar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish hamda transport-logistika tizimini boshqarish samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Mazkur tezisda xorijiy mamlakatlarning temir yo'l tarmog'ida transport-logistika tizimini boshqarish bo'yicha shakllangan ilg'or tajribalar ko'rib chiqilib, ularning asosiy xususiyatlari yoritiladi.

Yaponiya yuk tashuvlari bozori, birinchi navbatda, avtomobil yo'llari va dengiz transportiga mo'ljallangan. Temir yo'l tashuvlari Yaponiya temir yo'l kompaniyalari va qator boshqa xususiy temir yo'l kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Temir yo'l tashuvlari hajmi 1998-yilga qadar uzluksiz qisqarib borgan, shundan so'ng mamlakatdagi umumiy yuk tashuvlari ko'rsatkichining 4,5 foizi darajasida barqarorlashgan. Shu bilan birga, avtomobil transportidagi tashuvlar hajmi to'xtovsiz oshib borgan bo'lsa, dengiz transportidagi tashuvlar hajmi kamaygan[1].

Tashkil etilganidan boshlab davlat tuzilmasi bo'lib kelgan Japan Railways (JNR) temir yo'l kompaniyasi 1987-yilda xususiylashtirilib, oltita yo'lovchi tashuvchi va bitta yuk tashuvchi alohida kompaniya shaklida qayta tashkil etildi. Ular mintaqaviy tamoyil asosida bo'lindi. Bugungi kunda JNR kompaniyalari guruhiga East Japan Railway Co., West Japan Railway Co., Central Japan Railway Co., Hokkaido Japan Railway Co., Kyushu Japan Railway Co. va Shikoku Japan Railway Co. kabilar kiradi. Ular butun mamlakat hududi bo'ylab yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanadi hamda tegishli infratuzilmaning egasi hisoblanadi. Ular bilan birga yuk tashishga ixtisoslashgan Japan Freight Railway Co. ham faoliyat yuritadi. Yaponiya temir yo'llarining asosiy xususiyati yuqori tezlikdagi magistrallarning keng tarmog'iga egaligidir. Yuqori tezlikdagi tashuvlarni tashkil etish va liniyalarni yo'lovchi tashuvchi kompaniyalarga ijaraga berish bilan Shinkansen Property Corp. xolding kompaniyasi shug'ullanadi.

Yaponiya temir yo'l kompaniyalari ekspress yetkazib berishni tijorat nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalish sifatida baholaydi. Ushbu xizmat turini rivojlantirish transport jarayonlarini kompleks rejalashtirishni talab etadi.

AQSH, Fransiya va Gollandiya singari mamlakatlarda temir yo'l va avtomobil yo'llari, temir yo'l va dengiz yo'llari, shuningdek, temir yo'l va aviatsiyadan foydalangan holda aralash tashuvlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish deb hisoblanadi. Aralash tashuvlarni rivojlantirishning ustuvorligi quruqlikdagi hududlarning nisbatan kengligi va transport jo'natmalarining ancha uzoq masofalarga amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda Fransiya milliy temir yo'llariga (SNCF) uzoq masofalarga yuk tashishni qo'llab-quvvatlash maqsadida qariyb 1 mln dollar investitsiya kiritildi. Shu bilan birga, aralash tashuvlarni tashkil etishda Fransiya temir yo'llari boshqa mamlakatlarga nisbatan past rentabellikka ega. Garchi besh yil mobaynida aralash tashuvlardan tushumning besh yildagi jami o'sishi 25 foizga yetgan bo'lsa-da, foydaning mazkur davrdagi jami o'sishi darajasi faqat 11 foizni tashkil etdi[2]. Joriy davrda aralash tashuvlar umumiy tashuvlar hajmining 4 foizini va 500 mildan ortiq masofaga amalga oshiriladigan tashuvlar hajmining 12 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, aralash temir yo'l tashuvlari uchun nisbatan maqbul masofa 400 mildan 500 milgachani tashkil etadi[3].

XX asrning 80-yillaridan boshlab AQSHda temir yo'l tarmog'ini tartibga solish rejimi jiddiy ravishda susaytirildi. Avtomobil sektoriga xos bo'lgan atrof-muhitning ifloslanishi va avariyalar darajasining oshishi sababli temir yo'l transportini rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi. Bu mamlakatda tarixan xususiy bo'lib kelgan temir yo'llar XX asr o'rtalarida davlat tomonidan narx-navoni muvofiqlashtirish bo'yicha yaratilgan tizim oqibatida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi.

Temir yo'l tashuvlari bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida 1971-yilda davlat yo'lovchi tashish kompaniyasi tashkil etilib, butun mamlakat hududi bo'ylab uzoq masofalarga yo'lovchi tashishni amalga oshirish vazifasi uning zimmasiga yuklatildi. Shu sababli tashish bilan shug'ullanadigan xususiy kompaniyalar nisbatan ko'proq foyda keltiradigan yuk tashuvlarini amalga oshirib, o'z moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatiga ega

1 Govindan, K.; Grigore, C. 2010. Ranking of Japan Freight Railway Co, in 40th international Conference on Computers and Industrial Engineering, 26-28 July 2010, Awaji, Japan. IEEE. 978-1-4244-7295-6.
2 Wilbur Smith and Associates. 2015. The Practitioner's Definitive Guide: Multimodal Transport. Singapore: SNP Reference.
3 Ballou, R.H. Market area of rail-truck terminals: pertinence of the spatial theory / R. Ballou. – Pearson/Prentice Hall, 2012. – 789p.

boʻldilar. Bundan tashqari, milliy chegaralarning uzoq masofaga choʻzilgani va konteynerli tashuvlar hajmining oshishi samarali yetkazib berish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda temir yoʻl transporti ishtirokidagi yuk tashish xarajatlarining kamayishiga sabab boʻldi.

Transport turlari yordamida yuk tashish samaradorligini oshirish va AQSHda yuk tashuvlari infratuzilmasini rivojlantirish chorasi sifatida yuk tashuvlari narxining shakllanishi hamda yuk transporti sohasida narx shakllanishi bilan bogʻliq subyektlarning huquqiy munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish bekor qilindi va «Dengiz kodeksi»ga tegishli oʻzgartirishlar kiritildi. Bu konteynerli tashuvlar boʻyicha dengiz kompaniyalariga aralash tashuv xizmatlarini taqdim etish imkonini berdi[4].

AQSH hukumati dengiz kompaniyalari bilan ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini qoʻllab-quvvatlash choralarini ishlab chiqishda hamkorlik qilmoqda. Bu faoliyat 1991-yilda Yer usti intermodal tashuvlar samaradorligi toʻgʻrisidagi qonun va 1996-yilda keyingi huquqiy hujjatlarning qabul qilinishida oʻz ifodasini topdi[5]. AQSHda dengiz tashuvlari tizimidagi harakatlarni birlashtirish, transport samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, integratsiyalashgan aralash yuk tashuvlari tizimini yaratishga koʻmaklashish maqsadida ichki temir yoʻl transporti operatsiyalari va dengiz portlari faoliyatini birlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. AQSHda temir yoʻl va avtomobil transportida aralash tashuvlar tizimini rivojlantirish jarayonida uzoq masofalarga yuk tashish uchun temir yoʻllardan maqsadli foydalanish va yuklarni qisqa masofalarga avtotransportda yetkazib berish koʻzda tutiladi.

Bundan tashqari, aralash tashuvlarni rivojlantirish Amerika temir yoʻllari va avtomobil yoʻllari tizimiga tushadigan yuklamani kamaytirish, atrof-muhit muhofazasiga boʻlgan talabni qondirish, atrof-muhitning ifloslanish darajasini qisqartirish, konteynerlarda yuk tashish xavfsizligini kuchaytirish va yuklar sifati buzilishini kamaytirishga erishishda yordam berishi mumkin. 2020-yil yakunlariga koʻra, temir yoʻl transporti mamlakatning umumiy yuk aylanmasida eng katta solishtirma salmoqqa ega boʻlgan — 46,5 foiz, 245 ming kilometrdan ortiq boʻlgan ekspluatatsiya uzunligi koʻrsatkichi boʻyicha esa AQSH dunyoda birinchi oʻrinni egallaydi[6].

Lotin Amerikasi mamlakatlari tajribasi. Lotin Amerikasining Argentina, Braziliya, Meksika, Chili va Peru kabi mamlakatlarida temir yoʻl infratuzilmasining katta qismi dastlab davlat tasarrufida boʻlgan. 1990–2000-yillarda amalga oshirilgan islohotlar doirasida ayrim temir yoʻl obyektlari konsessiya bitimlari asosida xususiy kompaniyalar boshqaruviga berildi. Bunda raqobatchi operatorlarning infratuzilmani ekspluatatsiya qilish huquqi milliy qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Shahar atrofida yoʻlovchilar tashish segmentida tashishlarni boshqarish asosan davlat kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Britaniya temir yoʻllari yuklarni oʻz manziliga yetkazib berishda avtomobil transportida yuk tashuvchi kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi: yuklar yaqin stansiyalarga tezyurar poyezdlarda yetkazib beriladi va soʻng avtomobil transporti orqali buyurtmachiga yetkaziladi. Temir yoʻl va avtomobil transportidagi bunday aralash tashuvlar nafaqat yetkazib berish vaqtini qisqartiradi, balki yuk tashuvlarining ishonchlilik darajasini oshiradi[7].

XX asrning 80-yillarida temir yoʻl sektorining bozor sharoitidagi faoliyatida ayrim budjet javobgarligi markazlarini ajratishga asoslangan Britaniya temir yoʻllari xususiylashtirildi. Xususiylashtirishdan maqsad logistika markazining boʻlgʻusi savdo maydoni atrofida aralash tashuvlarni rivojlantirishdan iborat edi. Buyuk Britaniyada oʻtkazilgan islohotlar natijasida temir yoʻl orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi[8].

Kanada temir yoʻllari islohoti 1992-yilda boshlangan boʻlib, iqtisodiy tushkunlik va avtomobil transporti tomonidan koʻrsatilgan yuqori raqobat tufayli Canadian National davlat kompaniyasi IPO yoʻli bilan xususiylashtirildi. Kanada transport siyosati aralash tashuvlarni ilgari suradi va temir yoʻl hamda dengiz orqali yuk tashish kompaniyalarining birlashishini ragʻbatlantiradi. Shunday qilib, aralash tashuvlarni rivojlantirish natijasida Kanadada transport jarayoni samaradorligi oshgan boʻlsa-da, yuzaga kelgan tizim transport xizmatlarini yetkazib berish bozoridagi raqobatni ta'minlash sohasida ba'zi muammolarga sabab boʻldi.

Hozirgi kunga kelib, Kanadada Canadian National va Canadian Pacific kabi ikkita yirik kompaniya mavjud boʻlib, temir yoʻl infratuzilmasining asosiy qismi shular qoʻlida. Shu bilan birga, temir yoʻl transporti xizmatlari bozorida qisqa temir yoʻl shoxobchalari boʻylab yuk tashiydigan kichik va oʻrta hajmdagi transport kompaniyalari ham faoliyat yuritadi. Kanadada infratuzilmadan foydalanish shartlari va tariflar asosan infratuzilma egalari boʻlgan kompaniyalar tomonidan belgilanadi.

4 Хусаинов, Ф.И. Реформа железнодорожного транспорта: достижения и проблемы /Ф.И. Хусаинов // Вестник транспорта. - 2011. - № 4, 5. –С. 8-14, С. 2-11.

5 Laporte, G., Toth, P., Vigo, D. (2015) Vehicle routing: historical perspective and recent contribution. International Journal of Transportation and Logistics, 2(1-2), 1–4.

6 Brekalo, L.; Albers, S. 2016. Effective railway system and logistics, International Journal of Physical Distribution and Logistics Management 46(2): 212–240.

7 Rezder, A. V. Transport system in Moscow: transport and logistics infrastructure in the Russion / A.V. Rezder, // Finland, Kouvola: Vol. 25. – No. 4. – 2014. – p. 259–266.

8 Millen, R., Sohal, A., Dapiran, P., Lieb, R.C., Van Wassenhove, L.N. (1997): Benchmarking Australian Firms' Usage of Contract Transport Services - a Comparison with Great Britain and Western European Practice, in: Benchmarking for Quality Management & Technology, 4(1): 34-46.

Avstraliya temir yo'llari tarmog'ining uzunligi 35 000 km dan iborat bo'lib, undan turli shahar aglomeratsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi asosiy temir yo'l magistrallari 8 000 km ni tashkil etadi. Avstraliyada konteynerli yuk tashuvlarining 75 foizdan ortig'i temir yo'llarda amalga oshiriladi. Mamlakatdagi poyezdlarning harakatlanish jadvali ikki toifada tuziladi: doimiy yo'nalishlar va nomuntazam, ya'ni talabga bog'liq yo'nalishlar. Avstraliya hukumati aralash tashuvlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va transport siyosatini quyidagi tamoyillarga asoslangan holda shakllantiradi[9]:

— transport xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
— transport xizmatlariga bo'lgan talabga tezkor moslashish;
— tranzit salohiyatini oshirish.

Temir yo'l transportining umumiy yuk aylanmasidagi ulushi avtomobil transportiga nisbatan ancha past ekanligiga qaramay, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirish, tashish masofalarini kengaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash transport siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Temir yo'l transportining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida ko'plab mamlakatlarda temir yo'l infratuzilmasidan teng huquqli va barcha uchun bir xil tarzda foydalanishni ta'minlash, shuningdek, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan investitsiya institutlari va maxsus jamg'armalar tashkil etilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlarning temir yo'l transportini rivojlantirish tajribasi tarmoq samaradorligini oshirishda boshqaruv tizimini takomillashtirish, transport turlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, infratuzilmadan samarali foydalanish hamda zamonaviy logistika yondashuvlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan turli tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlari shakllangan.

O'zbekiston temir yo'l tizimini rivojlantirishda ushbu tajribalarning samarali jihatlarini milliy transport bozori, hududiy xususiyatlar va mavjud infratuzilma imkoniyatlariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, multimodal tashuvlarni kengaytirish, logistika markazlari faoliyatini takomillashtirish, transport kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, infratuzilmaga investitsiyalarni jalb etish hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish temir yo'l transportining iqtisodiy samaradorligi va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Cheong, Y. W. *Multimodal Transport: The Practitioner's Definitive Guide* / Y. W. Cheong. — 3rd ed. — Singapore : Straits Times Press, 2012. — 217 p. — ISBN 978-981-434-228-5.
2. Niérat, P. Market area of rail-truck terminals: pertinence of the spatial theory / P. Niérat // *Transportation Research Part A: Policy and Practice*. — 1997. — Vol. 31, No. 2. — P. 109–127. — DOI: 10.1016/S0965-8564(96)00015-8.
3. Хусаинов, Ф. И. Реформа железнодорожного транспорта: достижения и проблемы / Ф. И. Хусаинов // *Вестник транспорта*. — 2011. — № 4. — С. 8–14 ; № 5. — С. 2–11.
4. Laporte, G. Vehicle routing: historical perspective and recent contributions / G. Laporte, P. Toth, D. Vigo // *EURO Journal on Transportation and Logistics*. — 2013. — Vol. 2, No. 1–2. — P. 1–4. — DOI: 10.1007/s13676-013-0020-6.
5. Brekalo, L. Effective logistics alliance design and management / L. Brekalo, S. Albers // *International Journal of Physical Distribution & Logistics Management*. — 2016. — Vol. 46, No. 2. — P. 212–240. — DOI: 10.1108/IJPDLM-08-2014-0201.
6. Rezer, A. V. *Logistic Centres in Moscow: Transport, Operators and Logistics Infrastructure in the Moscow Region* / A. V. Rezer, E. Hämäläinen. — Kouvola : Kymenlaakso University of Applied Sciences, 2007. — 110 p.
7. Millen, R. Benchmarking Australian firms' usage of contract logistics services: a comparison with American and Western European practice / R. Millen, A. S. Sohal, P. Dapiran [et al.] // *Benchmarking for Quality Management & Technology*. — 1997. — Vol. 4, No. 1. — P. 34–46. — DOI: 10.1108/14635779710163037.


9 Барчукав, В.Ф. Вопросы управления железнодорожным транспортом в период реформирования/ В.Ф. Барчукав // Экономика железных дорог. - 2015.- № 11.- С. 25.

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

## Ilmiy elektron jurnal

## (MAXSUS SON)

**Bosh muharriri:** Mo‘minov Baxodir Boltaevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Nasimov Rashid

**Muharrir:** Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Musahhih:** Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Dizayner:** Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1124 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027


LOGIN
DATA
